

EMOTIOLOGIYA-HISSIYOTLAR LINGVISTIKASI

Ubaydullayeva Zarnigor Hasanboy qizi

Farg'ona davlat universiteti

Tayanch doktoranti

z.ubaydullayeva@mail.ru

Hissiyotlar lingvistikasi psixologiya va tilshunoslik chorrahasida paydo bo'lib, ko'plab ko'zga ko'ringan tilshunos olimlar (N.A.Krasavskiy¹, E.Yu.Myagkova², V.I.Shaxovskiy³)ning tadqiqot sohasiga aylandi. XX asr oxirida V.I. Shaxovskiy tilshunoslikka "emotivologiya" atamasini kiritdi. Bu yo'nalish hissiyotlarning inson faoliyatidagi o'rnini o'rganadi. Shaxovskiy fikriga ko'ra, "faqatgina insonning hissiy holati haqida tasavvurga ega bo'lgan holda, biz uning kim ekanligini bilamiz, deb ma'lum darajada aniq aytishimiz mumkin. Aloqa jarayonida hissiy reaksiyalarda insonning qadriyatlar va maqsadlari namoyon bo'ladi. Hissiyotlarni tushunish- inson shaxsiyatini tushunishning kalitidir. Bu atamaning kiritilishi nafaqat bizning his-tuyg'ularimiz va hissiy holatimizni, balki suhbatdoshning lingvistik aks ettirish, tasvirlash darajasini aniqlashga imkon berdi"⁴.

Hissiyotlar, ruhiy holatlar inson tafakkuri va tilida aks etadi. Tilda aks etgan hissiy holatlar o'z xususiyatlariga ega. Hissiyotlar inson bilish jarayonida motiv (maqsad) bo'lib xizmat qiladi, shaxs ichki dunyosini belgilab beradi. Tashqi dunyoni idrok etishda ichki dunyo katta ahamiyat kasb etadi. "Hissiyotlar nafaqat inson ichki dunyosidagi voqe'lik aks etishining bir shakli, balki hissiyotning o'zi ham shaxs munosabatini ifoda etish vositasidir"⁵.

G'arb tilshunoslari hissiyotlar lingvistikasiga biroz ertaroq e'tibor qarata boshlagan va ilmiy olam ahliga taqdim etilayotgan tadqiqot ishlari anchagina salmoqli bo'lsada, o'zbek tilshunosligida bu davrga qadar emotivologiya borasidagi tadqiqotlarga nisbatan kamroq e'tibor qaratildi. Shunday bo'lishiga qaramay, o'zbek tilshunosligida bugungi davrda bir nechta ilmiy tadqiqot ishlari ilm hamjamiyatiga taqdim etilganligi hamda bu ishlarda hissiyotlar lingvistikasi haqida yetarlicha ma'lumotlar kiritilgani bizni anchayin xursand qildi.

Tadqiqotchi G.M.Nosirovaning fikriga ko'ra, emotsiyalar insonning ruhiyatining emas, balki ongining ham asosidir. Ong va ruhiyat munosabati masalasi juda murakkab bo'lib, psixologlarni qay birining yetakchiligiga oid muammolar o'ylantirib keladi. Insonning ongosti tuyg'ularini quyi bosqich (низкий уровень) sifatida baholash an'anasi ancha keng tarqalgan: «Ongostida, ongdan farqli o'laroq, inson tomonidan amalga oshirayotgan harakatlarini maqsadli nazorat qilish va uning natijalarini baholashning imkoni yo'q».⁶

¹ Красавский Н. А. Эмоциональный концепт "отвращение" в романе Роберта Музиля "Душевные смуты воспитанника Тёрлеса".// Филологические науки. Вопросы теории и практики (входит в перечень ВАК), 2015.114-118. Красавский Н. А. Эмоциональные концепты в немецкой и русской лингвокультурах: монография. Волгоград: Перемена, 2001. 495 с.

² Мягкова Э.Ю. Язык – эмоции – сознание – культура в теории а. дамасио., Тверь, Россия; 2022. 72-85 с.

³ В. И. Шаховский Язык и эмоции в аспекте лингвокультурологии. Волгоград Издательство ВГПУ «Перемена» 2009.

⁴ В. И. Шаховский Язык и эмоции в аспекте лингвокультурологии. Волгоград Издательство ВГПУ «Перемена» 2009. 78с

⁵ В. И. Шаховский Язык и эмоции в аспекте лингвокультурологии. Волгоград Издательство ВГПУ «Перемена». 186с

⁶ Общая психология. Москва. Просвещение, 1986 – С.28.

Inson va uning tili, tilda ifodalanuvchi hissiy komponentlarni o'rganish muammosi his-tuyg'ular hamda tafakkur orasidagi o'ziga xos bog'lanishlar to'g'risidagi faylasuflar va psixologlarning uzoq davom etgan munozaralaridan yuzaga kelgan. Tilshunoslikda esa, bu muammo olimlarning tilning fundamental-kognitiv yoki hissiy-estetik vazifasi bilan bog'liq holda lingvistik tadqiqotlar markazida bo'lishi kerakligi haqidagi bahs-munozaralarda o'z ifodasini topdi. Shu nuqta'iy nazardan qaraganda til nafaqat ma'lumotni yetkazish, balki so'zlovchining ichki hissiy dunyosini ifodalash uchun ham xizmat qiladi. Insonni hissiy taraflama o'rganishga bo'lgan ilmiy qiziqish olimlarni yillar davomida o'ziga tortgan. His-tuyg'ular avvaliga alohida fanlarning o'rganish obyekti bo'lgan: falsafa, psixologiya, tilshunoslik, adabiyotshunoslik keyinchalik fanlararo birlashmalar paydo bo'la boshladi, buning natijasida his-tuyg'ular filologlar, biologlar, fiziolog va boshqa mutaxassislar bilan birgalikda ko'rib chiqila boshlandi. Shaxslararo muloqotda, inson hayotida hissiyotlarning roli beqiyosdir. Inson hayotining hissiy tomoni barcha ko'rinishlarda faoliyat bilan uzviy bog'liqdir. Hissiyotlar insonning atrofdagi voqelik hodisalariga munosabatini ifodalaydi. Insonning hissiy tizimi eng murakkab tizimlardan biri bo'lib, ko'p qirralidir, shu jumladan lingvistik tadqiqotlarni talab qiladi. Bugungi kunda his-tuyg'ularni o'rganish ushbu sohadagi dolzarb vazifalardan biridir. Bu kabi hissiyotlar bugun butun kommunikativ makonni qamrab olganligi bilan izohlanadi: siyosat, jurnalistika, jamoatchilik, kundalik va badiiy muloqot shular jumlasidandir. Hissiyotlar zamonaviy inson tafakkuri va lingvistik ongining eng muhim tarkibiy qismlariga aylandi. Tilshunoslik uchun hozirgi vaqtda hissiyotlarni semantik jihatdan talqin qilish va turkumlashtirish muammosi eng muhim jihati sifatida e'tirof etilmoqda. His-tuyg'ular voqelikni aks ettirish shakllaridan biri bo'lib, ular inson mavjudligining ajralmas qismi bo'lib, odamlar hayotida muhim rol o'ynaydi. Voqelik, narsa va hodisalarini anglash jarayonida biz ularga munosabat bildiramiz, o'z munosabatimizni turlicha ko'rinishlarda, his-tuyg'ularda ko'rsatamiz, bu esa, shubhasiz, tilda o'z ifodasini topadi. Bunday ko'rinishda, his-tuyg'ular o'zida insonning ma'naviy va kognitiv faoliyatining murakkab mahsuli ekanligini yana ham yorqinroq ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Ularning tilda aks etish usullarini o'rganish emotsionallikni o'rganishning lingvistik metodlarini yanada rivojlantirish nuqtayi nazaridan alohida ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Красавский Н. А. Эмоциональный концепт "отвращение" в романе Роберта Музиля "душевные смуты воспитанника Тёрлеса".// Филологические науки. Вопросы теории и практики (входит в перечень ВАК), 2015.114-118. Красавский Н. А. Эмоциональные концепты в немецкой и русской лингвокультурах: монография. Волгоград: Перемена, 2001. 495 с.
2. Мягкова Э.Ю. Язык – эмоции – сознание – культура в теории а. дамасио., Тверь, Россия; 2022. 72-85 с.
3. В. И. Шаховский Язык и эмоции в аспекте лингвокультурологии. Волгоград Издательство ВГПУ «Перемена» 2009.
4. Ubaydullaeva, Z. (2022). THE STUDY OF EMOTIONS IN LINGUISTICS. Conferencea, 159-162.
5. Ubaydullayeva, Z. (2023). HISSIYOT IFODALOVCHI NOVERBAL VOSITALARNING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI. Scientific journal of the Fergana State University, (6), 190-190.